



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	



IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0009-7264-2460
m.madaminova@fdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil fiskal siyosatni rivojlantirishning xalqaro tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra rivojlangan (Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, AQSH) va rivojlanayotgan (Qozog'iston) guruhlarga ajratilib, ularning uglerod solig'i, emissiyalar savdosi tizimi, transport, plastik paket va poligon soliqlari borasidagi tajribasi qiyoslangan. Tahlil natijalariga ko'ra, yashil fiskal instrumentlarning samaradorligi ularning turiga emas, balki soliq daromadlarini qayta yo'naltirish dizayni, institutsional tayyorgarlik va iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri fiskal signal yetkazilishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Maqola natijalar O'zbekistonda yashil fiskal siyosat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil fiskal siyosat, uglerod solig'i, ekologik soliqlar, emissiyalar savdosi tizimi, deкуплинг (ajralish), poligon solig'i.

Аннотация. В статье проанализирован международный опыт развития зеленой фискальной политики в обеспечении экономического роста и экологической устойчивости. В исследовании страны классифицированы по уровню экономического развития на развитые (Швеция, Дания, Финляндия, США) и развивающиеся (Казахстан), а также проведено сравнительное исследование их опыта применения углеродного налога, системы торговли выбросами, транспортного налога, налога на пластиковые пакеты и налога на захоронение отходов. Результаты анализа показали, что эффективность инструментов зеленой фискальной политики определяется не столько их видом, сколько механизмом перераспределения налоговых поступлений, институциональной готовностью и обеспечением прямого фискального сигнала для потребителей. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании механизмов зеленой фискальной политики в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: зеленая фискальная политика, углеродный налог, экологические налоги, система торговли выбросами, декарплинг (разделение), налог на захоронение отходов.

Abstract. This article analyzes international experience in developing green fiscal policy to promote economic growth and environmental sustainability. The study classifies countries into developed (Sweden, Denmark, Finland, and the United States) and developing (Kazakhstan) groups based on their level of economic development and compares their experience with carbon taxation, emissions trading systems, transport taxes, plastic bag taxes, and landfill taxes. The findings indicate that the effectiveness of green fiscal instruments depends not on the type of instrument itself but on the design of revenue recycling, institutional readiness, and the delivery of direct fiscal signals to consumers. The results provide practical recommendations for improving green fiscal policy mechanisms in Uzbekistan.

Keywords: green fiscal policy, carbon tax, environmental taxes, emissions trading system (ETS), decoupling, landfill tax.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o'zida ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmoqda. Ushbu muvozanatni ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida yashil fiskal siyosat, xususan, ekologik soliqlar, subsidiyalar va bozor asosidagi tartibga soluvchi mexanizmlar e'tirof etilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil fiskal instrumentlarni qo'llash amaliyoti mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional salohiyati va siyosiy sharoitlariga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli uni yagona mezon asosida baholash yoki barcha davlatlar uchun bir xil model sifatida talqin etish ilmiy jihatdan asoslanmagan bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil fiskal siyosat samaradorligini xalqaro miqyosda baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar ancha xilma-xil bo'lib, ular turli davlatlar va turli instrumentlar misolida olib borilgan. Uglerod solig'ining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda Julius Andersson (2019) tomonidan Shvetsiya misolida qo'llanilgan sintetik kontrol usuli alohida ahamiyatga ega bo'lib, u uglerod solig'ining transport sektoridagi chiqindilarni sezilarli darajada kamaytirgani, biroq mamlakatning real yalpi ichki mahsuloti o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaganini isbotlagan [1]. Bu natija adabiyotlarda "mutlaq ajralish" (*absolute decoupling*) hodisasi sifatida talqin etiladi.

Shved va fin modellari o'rtasidagi tafovutni Carl va Fedor (2016) tadqiqoti ochib beradi: mualliflar uglerod solig'i daromadlarining qayta taqsimlanish dizayni, ya'ni ularning yashil investitsiyalarga yoki umumiy daromad solig'ini kamaytirishga yo'naltirilishi instrumentning ekologik va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligini asoslab bergan [2].

Transport vositalarini soliqqa tortish mavzusida Mónica Meireles, Margarita Robaina va Daniel Magueta (2021) O'rtayer dengizi davlatlari misolida CO₂ asosidagi ro'yxatga olish va yillik transport soliqlarining farqli samaradorligini FMOLS, DOLS va ARDL usullari yordamida isbotlagan [3]. Yevropa Ittifoqida transport sektorining umumiy CO₂ chiqindisidagi ulushi **Transport & Environment** (2018) tomonidan alohida qayd etilgan [4]. Kok (2015) Niderlandiya misolida CO₂ asosidagi soliq imtiyozlarining amaliy samarasini o'rgangan [6], Gass, Schmidt va Schmid (2014) esa iste'molchi xulq-atvoridagi narx sezgirligi omillarini tahlil qilgan [5]. Bundan farqli o'laroq, Prateek Bansal va Rubal Dua (2022) Xitoy va Hindiston misolida narx elastikligining pastligi sababli faqat fiskal vositalarning yetarli emasligini ko'rsatgan [7], Karplus va boshqalar (2013) esa fiskal vositalarni ta'minot tarafidagi standartlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslagan [8].

Chiqindi sohasidagi ekologik soliqlar borasida Frank Convery, Simon McDonnell va Susana Ferreira (2007) hamda Dikgang, Leiman va Visser (2012) plastik paket solig'ining ikki xil institutsional muhitdagi (Irlandiya va Janubiy Afrika) natijalarini qiyoslagan [9, 10]. Poligon soliqlari bo'yicha esa Thornton Matheson (2019), Jordi Jofre-Monseny va Pilar Sorribas-Navarro (2024) hamda Adrian Martin va Ian Scott (2003) tadqiqotlari muhim empirik asos yaratadi [11, 12, 13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod asosiy uslub sifatida qo'llanildi. Dastlab xorijiy davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va yashil fiskal siyosatni amalga oshirish xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga — rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga — ajratildi. Har bir guruh doirasida uglerod solig'i va emissiyalar savdosi tizimi kabi keng qamrovli instrumentlar, so'ngra transport, plastik paket va poligon soliqlari kabi tor toifadagi ekologik soliqlar alohida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning tipologik xususiyatlari

Xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish maqsadida davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va yashil fiskal siyosatni amalga oshirish xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'un holda ta'minlashda yuqori natijalarga erishgan hamda boshqa davlatlar uchun ilg'or tajriba sifatida e'tirof etiladigan rivojlangan mamlakatlar, ikkinchi guruhga esa O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va institutsional sharoitlariga nisbatan yaqin bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar kiritildi (1-jadval).



1-jadval

Yashil fiskal siyosatni qo'llash darajasiga ko'ra rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari

RIVOJLANGAN DAVLATLAR (yetuk model)	RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR (shakllanish bosqichidagi model)
1. Yashil fiskal siyosati uzoq muddatli strategiya asosida izchil yuritiladi.	1. Yashil fiskal siyosat hali shakllanish bosqichida bo'lib, vositalar bosqichma-bosqich joriy etiladi.
2. Uglerod soliqlari, ekologik soliqlar va yashil subsidiyalar keng qo'llaniladi.	2. Ekologik soliqlar cheklangan bo'lib, asosan subsidiyalar va sinov (pilot) loyihalari ishlatiladi.
3. Soliqlardan tushgan mablag' yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiyaga yo'naltiriladi.	3. Yashil fiskal siyosatdan asosiy maqsad: byudjet daromadini yig'ish va ekologik barqarorlikka erishish.
4. Yashil siyosat ongli, ichki ehtiyojdan kelib chiqib o'tkaziladi.	4. Yashil siyosat ko'pincha tashqi talab va majburiyat ta'sirida joriy etiladi.
5. Iqtisodiy o'sish emissiyalardan ajraladi (decoupling), soliq siyosati raqobatbardoshlikka deyarli zarar bermaydi.	5. Yashil fiskal vositalarning samaradorligi past bo'lib, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir xavfi yuqori.
6. Mustahkam huquqiy va institutsional tizim fiskal siyosat samaradorligini ta'minlaydi.	6. Institutsional salohiyat va moliyaviy resurslar yetishmasligi yashil fiskal siyosatni sekinlashtiradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning tipologik xususiyatlari

Xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish maqsadida davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va yashil fiskal siyosatni amalga oshirish xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'un ta'minlashda yuqori natijalarga erishgan hamda boshqa davlatlar uchun ilg'or tajriba sifatida e'tirof etiladigan rivojlangan mamlakatlar, ikkinchi guruhga esa O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va institutsional sharoitlariga nisbatan yaqin bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar kiritildi. Ikki guruhning o'ziga xos xususiyatlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda yashil fiskal siyosat uzoq muddatli strategiya asosida izchil yuritilib, undan tushgan mablag'lar yashil texnologiyalarga yo'naltiriladi va bu iqtisodiy o'sishning emissiyalardan ajralishiga (decoupling) olib keladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa institutsional salohiyat va moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli yashil fiskal siyosat hali shakllanish bosqichida bo'lib, asosan subsidiyalar va pilot loyihalarga tayaniladi.

Uglerod solig'i tajribasi: Shvetsiya, Finlyandiya va Daniya misolida

Skandinaviya mamlakatlari — Shvetsiya, Daniya va Finlyandiya — uglerod solig'ini 1990-yillarning boshida joriy etgan dastlabki davlatlar bo'lib, ularning o'ttiz yildan ortiq amaliyoti bunday vositaning real iqtisodiy oqibatlarini baholash uchun noyob empirik asos beradi. Shvetsiya o'zining uglerod solig'ini 1991-yilda joriy etib, dastlab differensiyalangan stavkalar tizimini qabul qildi: isitish uchun yoqilg'i ishlatuvchi sanoat tarmoqlari uchun pasaytirilgan, qolgan sektorlar uchun esa yuqoriroq stavka belgilandi. Vaqt o'tishi bilan pasaytirilgan stavka bosqichma-bosqich bekor qilinib, 2018-yilga kelib barcha sektorlar yagona stavka ostida birlashtirildi. Soliq stavkasi 1991-yildagi har bir tonna uchun taxminan 25 AQSh dollaridan 2023-yilga kelib 125 AQSh dollarigacha bosqichma-bosqich oshib bordi. Andersson (2019) sintetik kontrol usuliga asoslangan tadqiqotida Shvetsiyaning uglerod solig'i chiqindilarning sezilarli darajada kamayishiga olib kelgan bo'lsa-da, mamlakatning real yalpi ichki mahsuloti o'sishda davom etganini isbotlagan — bu esa yashil fiskal siyosatdagi mutlaq ajralish hodisasining amaliy dalili sifatida qaraladi [1].

Finlyandiya uglerod solig'ini dunyoda birinchi bo'lib, 1990-yilning yanvarida joriy etgan. Dastlab stavka har bir tonna CO₂ ekvivalenti uchun 1,12 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2013-yilga kelib uglerod va energiya soliqlarining gibril modeliga aylanib, 18,05 dollarga, 2023-yildan 93,02 dollargacha oshib, 2024-yilda 62 dollargacha pasaytirilgan. Biroq Finlyandiya modeli daromadlarni qayta yo'naltirish dizayni bo'yicha Shvetsiyadan farq qiladi: Finlyandiya uglerod solig'idan tushgan daromad alohida ajratilmasdan, davlat budjeti doirasida taqsimlanadi va uning bir qismi daromad soliqlarini qoplashga yo'naltiriladi (soliq almashtirish modeli). Carl va Fedor (2016) ta'kidlashicha, bunday yondashuv to'g'ridan-to'g'ri ekologik investitsiyalar uchun mavjud resurslarni cheklaydi — masalan, 2013-yilda Finlyandiyaning uglerod solig'i daromadining hech qaysi qismi yashil subsidiyalarga ajratilmagan, Shvetsiyada esa, aksincha, soliq daromadlari qayta tiklanuvchi energetika sektorlarini bevosita qo'llab-quvvatlaydi [2]. Demak, Finlyandiya va Shvetsiya bir xil instrumentni deyarli bir vaqtda joriy etgan bo'lsa-da, ularning farqli natijalari instrumentning o'zi emas, balki daromadlarni qayta yo'naltirish dizayni hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.



Daniya 1992-yilda o'z uglerod solig'ini fossil yoqilg'ilarga bog'liqlikni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiyani rag'batlantirishga qaratilgan keng qamrovli energetika siyosatining tarkibiy qismi sifatida joriy etdi. Boshlang'ich soliq stavkasi bir tonna CO₂ uchun 15,57 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib 11,73 dollargacha pasaytirilib, 2023-yilga kelib 26,52 dollargacha oshdi. Daniya o'z uglerod solig'idan tushgan daromadning bir qismini korxonalarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan subsidiyalar shaklida yashil tashabbuslarga yo'naltirdi, shuningdek, milliy uglerod solig'ini Yevropa Ittifoqi Emissiyalar savdosi tizimi (EU ETS) bilan moslashtirib, ikki marta soliqqa tortishning oldini oldi. Shu bilan birga, soliq stavkasi oshganiga qaramay, uglerod solig'idan tushgan daromad 2008-yildagi taxminan 724 million dollardan 2023-yilga kelib taxminan 441 million dollargacha kamaygan, bu esa fossil yoqilg'i iste'molining qisqarishi bilan izohlanadi.

Emissiyalar savdosi tizimi tajribasi: Qozog'iston va Amerika Qo'shma Shtatlari

Qozog'iston Osiyoda birinchi bo'lib milliy emissiyalar savdosi tizimini (KazETS) joriy etgan davlat hisoblanadi. Tizim EU ETS tajribasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, dastlabki bosqichida 166 ta yirik sanoat korxonasi qamrab olindi va ular mamlakatdagi yirik issiqxona gazlari emissiyalarining qariyb 55 foizini tashkil etdi. 2014–2015-yillar uchun umumiy emissiya limiti 155,4 million tonna CO₂ miqdorida belgilandi. Biroq Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatdiki, ETS joriy etilganiga qaramay, mamlakatda CO₂ chiqindilari va energetika sektorining emissiya intensivligi kutilganidek kamaymadi, aksincha, o'sish tendensiyasini namoyon etdi, bu esa tizimni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Uglerod narxlash mexanizmlarining boshqa mamlakatlardagi cheklangan ijobiy natijalariga qaramay, bu tajriba Amerika Qo'shma Shtatlarida ijobiy qabul qilinmadi: Kongress 2016-yilda uglerod chiqindilariga federal soliq joriy etish taklifini rad etdi, chunki bu mamlakat energetikasining 85 % iga ta'sir qilishi va 40 yil ichida 21 million ish o'rnining qisqarishiga olib kelishi prognoz qilingan edi. Shunga qaramay, AQShning Shimoliy-Sharqiy mintaqasidagi o'nta shtatini birlashtirgan RGGI (Regional Greenhouse Gas Initiative) dasturi 2009-yildan buyon "cap-and-invest" modeli asosida muvaffaqiyatli amal qilmoqda: dastur mavjudligining butun davrida (2009–2020 yy.) CO₂ chiqindilari 46 foizga kamaydi, auksion tushumlari 3,8 milliard dollarni, sof iqtisodiy foyda esa 5,7 milliard dollarni tashkil etdi, bunda tushumning 41 foizi energiya samaradorligi dasturlariga yo'naltirildi.

Transport vositalarini soliqqa tortish tajribasi

Yevropa Ittifoqida transport sektori umumiy CO₂ chiqindisining 27 % ini, shundan yengil avtomobillar 41 % ini tashkil etadi [4]. Meireles, Robaina va Magueta (2021) 11 ta O'rta yer dengizi davlati misolida 2008–2018-yillar panel ma'lumotlari asosida FMOLS, DOLS va ARDL usullaridan foydalanib o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, ro'yxatga olish solig'i va yillik transport solig'i ikkalasi ham yangi avtomobillarga bo'lgan talabga hamda transport CO₂ miqdoriga statistik ahamiyatli salbiy ta'sir ko'rsatgan [3]. Shu bilan birga, yillik transport solig'ining ta'siri barcha uchala usulda izchil tasdiqlangan, ro'yxatga olish solig'ining uzoq muddatli ta'siri esa usulga qarab farq qilgan — buning sababi sifatida iste'molchilarning bir martalik xarid narxiga nisbatan yillik to'lovlarga kamroq e'tibor berishi ko'rsatiladi [5]. Niderlandiyada 2008–2013-yillarda joriy etilgan CO₂ asosidagi soliq va imtiyozlar natijasida yangi avtomobillar CO₂ chiqindisi 11 % ga kamaygan va mamlakat Yevropada eng past chiqindili davlat reytingida 12-o'rindan 1-o'ringa ko'tarilgan, biroq bu kamayishning uchdan bir qismi 2008–2009-yillardagi iqtisodiy inqiroz kabi tashqi omillar hisobiga to'g'ri kelgan [6].

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi ancha boshqacha manzarani namoyon etadi. Bansal va Dua (2022) Xitoy va Hindiston misolida o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra, ikkala mamlakatda ham yoqilg'i narxiga nisbatan talab elastikligi juda past (qisqa muddatli elastiklik Hindistonda –0,18, Xitoyda –0,28), bundan tashqari, kutilgan yoqilg'i tejalishining 17–19 % i "qaytish effekti" orqali yo'qqa chiqqan [7]. Shu asosda mualliflar past narx elastikligi sharoitida faqat narxga asoslangan fiskal vositalarning yetarli emasligini, ularni yoqilg'i samaradorligi standartlari kabi ta'minot tarafidagi majburiy choralar bilan birga qo'llash zarurligini asoslaydi [8].

Plastik paket va poligon soliqlari tajribasi

Convery, McDonnell va Ferreira (2007) tadqiqotiga ko'ra, Irlandiyada 2002-yilda joriy etilgan har bir plastik paket uchun 0,15 yevrolik yig'im natijasida paketlar iste'moli 90–94 % ga kamaygan, yig'imni ma'muriy qo'llash xarajati esa daromadning atigi 3 % ini tashkil etgan [9]. Bunga qarama-qarshi o'laroq, Dikgang, Leiman va Visser (2012) Janubiy Afrika tajribasini o'rgangan tadqiqotida shuni ko'rsatganki, xuddi shunday yig'im joriy etilgandan so'ng ishlab chiqaruvchilar bosimi ostida uning miqdori bosqichma-bosqich pasaytirilib, umumiy kamayish atigi 44 % da to'xtab qolgan hamda soliq regressiv xarakterga ega bo'lib chiqqan [10].

Poligon soliqlari borasida Matheson (2019) xalqaro tajriba tahlilida chiqindi bo'yicha fiskal instrumentlar faqat institutsional islohotlar bilan uyg'unlashganda samara berishini ko'rsatadi [11]. Jofre-Monseny va Sorribas-Navarro (2024) Ispaniyaning Kataloniya mintaqasi misolida poligon solig'ining 2017–2020-yillarda oshirilishi natijasida "eshikma-eshik" chiqindi yig'ish tizimini joriy etmagan munitsipalitetlarda poligonga tashlanadigan chiqindi 12 % ga qo'shimcha kamayganini aniqlagan, biroq bu natijaning asosiy sababi soliqning o'zi emas, balki uning ta'sirida yig'ish tizimining o'zgarishi ekanligini ta'kidlaydi [12]. Buning aksincha, Martin va Scott (2003) Buyuk Britaniya tajribasida poligon solig'ining munitsipal soliq tarkibiga qat'iy stavka bilan kiritilgani sababli uy xo'jaliklari xatti-harakatiga deyarli ta'sir ko'rsatmaganini isbotlaydi [13].



O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil fiskal instrumentlarning samaradorligi ularning turiga emas, balki uchta omilga bog'liq: birinchidan, soliq daromadlarini qayta yo'naltirish dizayniga (Shvetsiya va Finlyandiya taqqoslamasi buni yaqqol ko'rsatadi); ikkinchidan, institutsional tayyorgarlik darajasiga (Qozog'istonning KazETS tajribasi va rivojlanayotgan davlatlarda narx elastikligining pastligi buni tasdiqlaydi); uchinchidan, fiskal signalning to'g'ridan-to'g'ri iste'molchi xatti-harakatiga bog'lanish darajasiga (Ispaniya va Buyuk Britaniya poligon soliqlari taqqoslamasi, Irlandiya va Janubiy Afrika plastik paket soliqlari taqqoslamasi buni isbotlaydi). Bu xulosalar O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega: yashil fiskal instrumentlarni joriy etishda nafaqat soliq stavkasini belgilash, balki undan tushgan daromadni yashil investitsiyalarga maqsadli yo'naltirish va soliqni iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri yetkazish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil fiskal siyosatning xalqaro tajribasini yagona andoza asosida baholab bo'lmaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi uzoq muddatli strategiya, mustahkam institutsional asos va soliq daromadlarini yashil texnologiyalarga qayta yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sish bilan emissiyalarni bir-biridan ajratishga erishgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar hali shakllanish bosqichida bo'lib, institutsional va moliyaviy resurslar cheklanganligi sababli asosan subsidiyalar va sinov loyihalariga tayanmoqda. Bir xil instrumentning turli mamlakatlarda farqli natija berishi shuni tasdiqlaydiki, instrumentning o'zi emas, balki soliq daromadlarini qayta yo'naltirish dizayni, institutsional tayyorgarlik va siyosiy izchillik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xuddi shu qonuniyat transport, plastik paket va poligon soliqlari kabi tor toifadagi ekologik soliqlar tahlilida ham tasdiqlanadi. Shu asosda ekologik soliqlar energiya, transport, ifloslanish va resurs soliqlaridan iborat to'rt toifaga tizimlashtirilib, O'zbekistonda yashil fiskal siyosat mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi: ekologik soliq stavkalarini bosqichma-bosqich va oldindan bashorat qilinadigan tarzda oshirish; soliq daromadlarining muayyan qismini yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiyaga maqsadli yo'naltirish; hamda soliq yukini iste'molchi xatti-harakatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lovchi fiskal mexanizmlarni joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Andersson J. J. Carbon taxes and CO2 emissions: Sweden as a case study // *American Economic Journal: Economic Policy*. – 2019. – Vol. 11. – P. 1–30.
2. Carl J., Fedor D. Tracking global carbon revenues: A survey of carbon taxes versus cap-and-trade in the real world // *Energy Policy*. – 2016. – Vol. 96. – P. 50–77.
3. Meireles M., Robaina M., Magueta D. The effectiveness of environmental taxes in reducing CO2 emissions in passenger vehicles: The case of Mediterranean countries // *International Journal of Environmental Research and Public Health*. – 2021. – Vol. 18. – No. 10. – P. 5442.
4. Transport & Environment (T&E). *CO2 Emissions from Cars: The Facts*. – Brussels: European Federation for Transport and Environment, 2018.
5. Gass V., Schmidt J., Schmid E. Analysis of alternative policy instruments to promote electric vehicles in Austria // *Renewable Energy*. – 2014. – Vol. 61. – P. 96–101.
6. Kok R. Six years of CO2-based tax incentives for new passenger cars in The Netherlands: Impacts on purchasing behavior trends and CO2 effectiveness // *Transportation Research Part A: Policy and Practice*. – 2015. – Vol. 77. – P. 137–153.
7. Bansal P., Dua R. Fuel consumption elasticities, rebound effect and feebate effectiveness in the Indian and Chinese new car markets // *Energy Economics*. – 2022. – Vol. 113. – P. 106192.
8. Karplus V. J. et al. Should a vehicle fuel economy standard be combined with an economy-wide greenhouse gas emissions constraint? Implications for energy and climate policy in the United States // *Energy Economics*. – 2013. – Vol. 36. – P. 322–333.
9. Convery F., McDonnell S., Ferreira S. The most popular tax in Europe? Lessons from the Irish plastic bags levy // *Environmental and Resource Economics*. – 2007. – Vol. 38. – P. 1–11.
10. Dikgang J., Leiman A., Visser M. Elasticity of demand, price and time: Lessons from South Africa's plastic bag levy // *Applied Economics*. – 2012. – Vol. 44. – No. 26. – P. 3339–3342.
11. Matheson T. *Disposal is Not Free: Fiscal Instruments to Internalize the Environmental Costs of Solid Waste*. – IMF Working Paper WP/19/283, 2019.
12. Jofre-Monseny J., Sorribas-Navarro P. Landfill tax and recycling // *Fiscal Studies*. – 2024. – Vol. 45. – P. 483–500.
13. Martin A., Scott I. The Effectiveness of the UK Landfill Tax // *Journal of Environmental Planning and Management*. – 2003. – Vol. 46. – No. 5. – P. 673–689.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>